

Date: 17th November-2024

JAMIYATDA XOTIN-QIZLARNING TUTGAN O'RNI VA ULARNING FAOLIYATINI YENGILLASHTIRISHDA XOTIN-QIZLAR FAOLINING HAMDA PROFILAKTIKA INSEKTORINING ROLI

Ravshanov Shaxboz Topilovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 311-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada profilaktika inpektorining mahalla yettiligi, xususan xotin-qizlar faoli bilan hamkorligi yo'nalishlari, hamkorlikning amalga oshirilishining huquqiy asoslari, bu boradagi kamchiliklar va ularni oldini olishdagi amalga oshiriladigan asosiy ishlar va bu borada kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va xalqaro xorij tajribalari yoritib berilgan. Shuningdek agar muammolar mahalla yettiligining o'zida hal qilinsa, boshqalarning oromi buzilmasligi ham ko'rib o'tilgan.

Annotation: In this scientific article, the directions of cooperation of the prevention inspector with the neighborhood seven, in particular with women's activists, the legal basis of the implementation of the cooperation, the shortcomings in this regard and the main works to be carried out to prevent them, and the works to be carried out in this regard in the future and international foreign experiences are highlighted. given It was also considered that if the problems are solved in the neighborhood seven, the peace of others will not be disturbed.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur", deb alohida ta'kidlagan. Buyuk ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat: "Farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim", deb yozgan edi. Biz Uchinchi Renessans poydevorini qurish, jamiyatda yangi ma'naviy makon yaratish haqida gapirar ekanmiz, bu ishlarni otalar, onalar, ustozlar ma'naviyati bilan uzviy amalga oshirishimiz zarur. Bugun biz ochiq jamiyatda yashayapmiz. Bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanib, ilg'or g'oyalarni o'zlashtirishimiz kerak. Lekin, milliy qiyofamizga putur yetkazadigan illatlardan ehtiyot bo'lishimiz, o'zligimizni yo'qotmasligimiz shart" [1]

Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning ko'rki bo'lgan xotin qizlarga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimiz uchun azal azaldan buyuk qadriyat bo'lib kelgan.. Vatanimizning bugungi taraqqiyotida, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar muhim o'rin va mavqeni egallashmoqda. Xususan, "Ayollga e'tibor kelajakka e'tibor" naqillarimiz bejiz emas. Hozirda aksariyat xotin qizlar yuqori intellekt, nufuzli dunyoviy bilim va malakaga ega ijtimoiy faol qatlam sifatida jamiyat farovonligi yo'lida xizmat qilishmoqda. Mustaqillik yillariga nazar tashlasak, datstlab xotin qizlarning jamiyat hayotida ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor berilgan. Hozirgi davrda ayollarga munosabat masalasida talab qilinayotgan qoidalar islom dinining ezgu g'oyalari bilan sug'orilgan,



Date: 17th November-2024

xalqimizda azaldan mavjuddir. Darhaqiqat, diniy tomonlama e'tibor bersak, Islom qonunchiligida ham ayollarning huquqlari himoya qilingan. Islom dini ayolga mehnatni man etmadi, balki ayolni o'z tabiatiga munosib, shaxsiyatiga to'g'ri keladigan mehnat bilan shug'ullanishini targ'ib qilgan.

Ayni vaqtda jamiyatimizda ayollar katta ijtimoiy kuchga aylanmoqda. Mamlakatimizda o'tkazilayotgan barcha tadbirlar bugun ayollarimizning ishtirokisuz o'tmaydi. Ayniqsa, fan, ta'lim, madaniyat sohasida minglab olimayu, fozila ayollar mehnat qilmoqdaki, ular jamiyat taraqqiyotida o'z mavqeyi va munosib ish o'rinlariga egadirlar. Shu jihatdan olganda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimiz L. A Karimov xotin qizlar masalasiga alohida to'xtalib "Bugun ma'rifiy dunyoda xotin-qizlar manfaati degan alohida masala bor va uni o'rganish, yechimini topishga juda katta ahamiyat berilishi bejiz emas. Agar ayollarga yetarli e'tibor berilmasa, bunday jamiyatning kelajagi bo'lmaydi" deb ta'kidlagan [2]. Ushbu jumalarning izohi sifatida xotin qizlarimizni ta'limga jalb qilishimiz, oliy ma'lumotga ega bo'lishiga imkoniyatlar bugun yetarlicha. Oliy ma'lumotga ega qilishimizdan asosiy maqsad barkamol yosh avlodni har tomonlama salohiyatli, keng dunyoqarash, intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda onalarimizda yetarli bilim va salohiyat bo'lsagina farzandiga tarbiya va ta'limni uyg'un tarzda olib borishi mumkin. Farzandga ta'lim va tarbiya berishda ayollarimizning roli erkaklarga nisbatan ustunroqdir. Boisi shundaki, farzand dunyoga kelibon to'voyaga yetgunga qadar ilk ijtimoiy munosabat va jamiyatdagi mavjud me'yorlarni onasi orqali anglaydi. Zamonaviy ayolga shunchaki o'qish, yozish, hisobni bilish yeztrali emas, uning oldida ta'lim sifati muammosi paydo bo'lib, doimo mustaqil tarzda o'z ustida tinimsiz ishlab, o'z bilimini orttirib chuqurlashtirib borishni talab etadi. Shu sababli ham ayni paytda nafaqat qizlarimizni ta'limga jalb qilish, balkida oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin qizlarimizni davlat budjetidan imtiyozlar ko'rinishida ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, yokida maxsus "Monomarkaz" larda kasb-hunarining barcha turlariga o'qitishni ko'zda tutadi. Ayollarimiz oilada bugun oilaviy budjetga ham o'z hissalarini qo'shmoqda. Bu albatta yaxshi holat. Ammo biz ta'kidlab o'tishimiz kerakki, ba'zi hollarda ayollar o'z oilasining asosiy boquvchisiga aylanib qolayotganligi sir emas. Oilada ayolning regulyatorlik funksiyasini oshishini kuzatishimiz mumkin. Bu ham oilada bir qancha sotsial muammolarni yuzga kelishida omil bo'la oladi. Jamiyatimizda ayollarning harm turli ijtimoiy ehtiyojmand toifalari mavjud. Yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj xotin qizlarimizni bugun faol qilib, qiyin vaziyatida ularni o'qitib, kasb hunarli qilib, muammolarini o'zlari yengishga asosiy e'tibor qaratilmoqda, va ijtimoiy xodim sifatida bu bizning ustuvor maqsadimiz. Zamonamizni o'tmish tarix bilan taqqoslasak, xotin qizlarimizning bugungidek erkinligi, huquq va imkoniyat jihatidan tengligi taqsiinga sazovordir. Bugun xotin qizlarimiz uchun mavjud imtiyozlarni ko'rib chiqamiz.

Xotin-qizlar o'qishga kirishida qo'shimcha davlat granti va imtiyozli kreditlar. Kam ta'minlangan oilalardagi xotin qizlar, To'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan yoxud ota onasining ikkisi ham vafot etgan ijtimoiy himoya muhtoj qizlar, Turmush o'rtog'i vafot etgan. Voyaga yetmagan farzandini yolg'iz tarbiyalayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj



Date: 17th November-2024



ayollar, Nogironligi bo'lgan ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar. Yuqoridagi ehtiyojmand toifalarga tavsiyanoma Mahalla va Nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan beriladi hamda bu toifalar "Ayollar daftari" ga ham tegishlidir. "Ayollar dafari" ga 30 yoshdan oshgan xotin va qizlarimizni qamrab oladi. Qo'llab quvvatlash asosan (moddiy tomonlama, natura shaklida, dori-darmon bilan ta'minlash, jarroxlik amaliyoti uchun mablag'lar bilan qo'llab quvvatlash) ni o'z ichiga oladi. OTM uchun 4% kvotani olishi mumkin. Bundan tashqari 2020-yil 18- fevraldagi PF-5938 "Jamiyatda ijtimoiy- ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish mahalla institutini yanada qo'llab quvvatlash hamda oil avaxotin qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni qabul qilindi[3]. Bunda yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin qizlar, nogironligi bo'lgan ayollarga ijtimoiy huquqiy, xotin qizlarning bandligi, mehnat sharoitlarini yaxshilash, qishloq joylarda xotin qizlarning oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilikka jalb qilishga ham atroflicha to'xtab o'tilgan.

Aytishimiz joizki, 2019-yil 2-sentabrda "Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq va hamda imkoniyatlar kafolatlari" to'g'risidagi qonun mavjud bo'lib, 5- moddasida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, ya'ni har bir faoliyat turida ayollarimiz erkaklar kabi istgan kasbida ishlashi va o'z karyerasini tashkil qilishi mumkin. Hozirda yangilanayotgan bosh qomusimiz hisoblangan Konstitutsiyamizning yangi tahririning 58- moddasida xotin qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi [4]. Xo'sh, aslida erkak va ayol rahbarlar muvaffaqiyatga erishishlarida ma'lum darajada tafovut mavjud Taniqli daniyalik olim F. Denmark katta hajmdagi tatqiqotlar natijasida shunday xulosaga keldiki, hususan insoniy munosabatlar, kongilchanlik, boshqaruvda demokratik tamoyillarga suyanish ayollarda ko'proq uchraydi. Va bu ko'rsatkichlar ma'lum ma'noda ijobiy omilni ifodalaydi. Mamlakatimizda 7 mln dan ortiq ishchi, xizmatchi, talabalarni o'zida mujassamlashtirgan 14 ta yirik kasaba uyushmalari a'zolarining yarmidan ko'pini ayollar tashkil etadi. Ko'rishimiz mumkinki, davlat boshqaruvi faoliyatida xotin qizlarimizdan "Deputat", "Vazir", "Senator", "Vazir o'rinbosari", "Akademik", "Tadbirkor", "Direktor", lavozimlarda faoliyat olib borayotganlari gender tengligining yaqqol misolidir. 2030 yilga qadar tenglik strategiyasi orqali barcha uchun teng huquq va sifatli ta'limni ta'minlash, qizlarning oliy ma'lumotga ega bo'lishi, zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik kabi masalalarni qamrab olgan. 2023- o'quv yilidan boshlab, magistraturada o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt pullarini to'liq budjetdan qoplab berish uchun har yili 200 mlrd so'm mablag' va doktoranturada ilmiy tadqiqotlar olib borishlari uchun xotin-qizlarga har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilyapti. 2022 2026 yillarga xotin qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash dasturi qabul qilinishi ko'zda tutilmoqda. 2021 yilda ayollar tadbirkorligi dasturi doirasida mingdan ziyod xotin qizlarga oilalar tadbirkorligi doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion kredit va subsidiya ajratilib, 320 ming xotin-qizlar doimiy ish o'rinlariga ega bo'ldi. 2021 yilda 190 ming nafar ayollar kasb-hunarga o'qitildi.

Date: 17th November-2024

Bundan tashqari, 4 mingdan ziyod xotin qizlarga uy joy to'lovining boshlang'ich badaliga mablag' ajratilmoqda. Yildan yilga inson qadri yuksak darajalarga ko'tarilmoqda.

2020-yil 1-iyuldan o'zini o'zi band qilgan shaxslar ro'yxati shakllantirildi. Bunda xotin qizlarimizni hamshiralik ishi o'zini o'zi band qilish faoliyati turi hisoblanadi [5]. Mazkur faoliyatni o'rta tibbiy yoki oliy hamshiralik ishi yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega tegishli axborot tizimida ro'yxatdan o'tgan shaxslar amalga oshiradi. Har bir hududda o'z o'zini boshqarish organlarida "Ijtimoiy himoya yagona reestr" elektron tizimi tashkil etilgan. Mazkur tizimda har bir tumandagi MFY da istiqomat qiluvchi kam ta'minlangan oilalar, ishsiz xotin-qizlar, ijtimoiy yordamga muhtoj yolg'iz ayollar ro'yxati shakllantirilgan bo'ladi. Bu jarayon bilan mahallada xotin qizlar faoli ehtiyojmand ayol qizlarimizni har tomonlama qo'lab quvvatlaydi. Ushbu yordam ijtimoiy psixologik, huquqiy, sog'lom turmush tarzini ta'minlash, tibbiy ijtimoiy xizmatlar sifati shu kabi yoki yanada jiddiy muammolarini aniqlash va manzilli ko'mak berishni o'z vakolatiga oladi. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, ta'lim olayotgan, mehnatda band bo'lgan xotin qizlarimizning intilishlari va qobiliyatlarini inobatga olishimiz, ularni jamiyatda erkaklar bilan faoliyatini uzviy va uyg'un tarzda davom ettirish, imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Ayollarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilishimiz va jamiyatimizda ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish maqsadga muvofiq strategiyadir. Zero, unutmaylik, "Kelajak tarbiyasi olima ayollarimiz qo'lidadir" !!!

